

THE PLACE AND ROLE OF TECHNICAL TRAINING IN THE ORGANIZATION OF TECHNICAL SUPPORT IN THE TROOPS

Rakhmonov K. B.

Department of Technical Support,
Military Security and Defense University

Abstract

This article describes the concept of technical support, the main tasks of technical support, the concept of technical training, its tasks, goals and procedures of the organization, the place and role of technical training in the organization of technical support in modern conditions.

Keywords: Technical support, technical training, weapons and military equipment, maintenance, military equipment, maintenance, restoration, driver, driver, repair, knowledge, skills, complex of technical sciences.

Introduction

QO'SHINLARDA TEXNIK TA'MINOTNI TASHKILLASHTIRISHDA TEXNIK TAYYORGARLIKNI O'RNI VA ROLI

Raxmonov K. B.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti texnik ta'minot kafedrası

Anotatsiya:

Ushbu maqolada texnik ta'minoti tushunchasi, texnik ta'minotning asosiy vazifalari, texnik tayyorgarlik tushunchasi, uni vazifasi, maqsadi va tashkillashtirish tartiblari, zamonaviy sharoitlarda texnik ta'minotini tashkillashtirishda texnik tayyorgarlikni o'rni va roli ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: texnik ta'minoti, texnik tayyorgarlik, qurol-aslaha va harbiy texnika, texnik soz, jangovar shay, texnik xizmat ko'rsatish, tiklash, haydovchi, mexanik haydovchi, ta'mir, bilim, ko'nikma, texnik fanlar majmuasi.

Аннотация:

В данной статье описаны понятие техническое обеспечение, основные задачи технического обеспечения, понятие технической подготовки, ее задачи, цели и процедуры организации, место и роль технической подготовки в организации

техническое обеспечение в современных условиях.

Ключевые слова: техническое обеспечение, техническая подготовка, вооружения и военная техника, техническая обслуживания, боевая техника, обслуживание, восстановление, водитель, механик-водитель, ремонт, знания, навыки, комплекс технических наук.

Abstract:

This article describes the concept of technical support, the main tasks of technical support, the concept of technical training, its tasks, goals and procedures of the organization, the place and role of technical training in the organization of technical support in modern conditions.

Keywords: Technical support, technical training, weapons and military equipment, maintenance, military equipment, maintenance, restoration, driver, driver, repair, knowledge, skills, complex of technical sciences.

Kirish

Qo'shilmalar, harbiy qism va bo'linmalarining jangovar shayligi va jangga layoqati, shaxsiy tarkibning tayyorgarligini darajasiga, ularga birlashtirilgan qurollarni zamonaviy qurolli mojarolarning murakkab sharoitlarida to'g'ri ekspluatatsiya qilishiga, zamonaviy texnikalar konstruksiyasiga, zamonaviy texnikalarga o'rnatilgan qurollarni to'liq ravishda ishlata olish, shuningdek qurol-aslaha va harbiy texnikalarni ta'mirlash bo'yicha bilim va ko'nikmalariga, texnik ta'minoti mutaxassislarini texnik tayyorgarlik darajasiga bog'liq [1]. Zamonaviy qurolli mojarolarda qo'shinlarni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika butlanganligi shubhasiz dushmanning ustidan g'alaba qozonishda muhim ahamiyatga ega. Lekin qurol-aslaha va harbiy texnikalar qanchalik yangi, zamonaviy turdagi bo'lmasin ular o'z-o'zidan jang g'alabasini ta'minlab bermaydi. Qurol-aslaha va harbiy texnikalar ekspluatatsiyasiga ma'sul harbiy xizmatchilar ularni a'lo darajada ekspluatatsiya qilish bilim va ko'nikmalarini ega bo'lishlari, ulardan jangovar harakatlar davomida mohirona foydalanishlari, zamonaviy texnikalar bazasiga o'rnatilgan barcha turdagi qo'shimcha texnik vositalar jangovar xususiyatlarini to'la holda qo'llash mahoratiga ega bo'lishlari zarur.

Asosiy qism

Texnik ta'minot – qo'shinlarni qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan butlash, ularni o'q-dorilar va harbiy-texnika anjomlar bilan ta'minlash, jangovar shay holda saqlash, shuningdek jangovar vazifalarni bajarayotgan bo'linmalar jangovar qobiliyatini tiklash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir.

Jangovar harakatlar turlari va darajasidan qat'iy nazar texnik ta'minotni asosiy tadbirlari

quyidagilar hisoblanadi:

bo'linmalarni qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan butlash;

raketa va o'q-dorilar zaxirasini yaratish;

qurol-aslaha va harbiy texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish;

qurol-aslaha va harbiy texnikalarni tiklash;

harbiy texnik anjomlar zahirasi yaratish;

shaxsiy tarkib bilan maxsus va texnik tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkillashtirish va o'tkazish;

texnik ta'minotni boshqarish.

Zamonaviy qurolli mojarolar davomida qurol-aslaha va harbiy texnikalarga xizmat ko'rsatish shaxsiy tarkibdan nihoyatda qattiq intizom va puxtalikni talab qilmoqda, bu esa turli sharoit vaziyatlarida ishlash asoslari va ekspluatatsiyasida o'ziga xos xususiyatlarini yuqori darajada o'zlashtirgan bo'lishlikni talab qilmoqda. Dunyoda yuz berayotgan zamonaviy qurolli mojarolar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, agarda qurolli mojarolar davomida qurol-aslaha va harbiy texnikalarga o'z vaqtida normativ texnik hujjatlari talablariga asosan TXK ishlarini amalga oshirmasdan ularni intensiv ekspluatatsiya qilishni davom etilganda har safdan chiqqan 10 texnikadan 3-4 tasi noto'g'ri ekspluatatsiya qilish orqali safdan chiqmoqda. Bu esa bo'linmalarni qurol-aslaha va harbiy texnika bilan qayta butlashda juda ham sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Bir qaraganda ekspluatatsiya va ta'mirlash texnologik intizomini mayda buzilishlari ham ekspluatatsiya sabablarga ko'ra ancha mashinalarni ishdan chiqishiga, ushlanib qolishiga, ba'zida esa ularga yuklangan jangovar vazifalarni barbod bo'lishiga ham olib kelishi mumkin.

Texnik tayyorgarlik ta'minot turlarining asosiyalaridan biri bo'lgan texnik ta'minotning asosiy vazifalaridan biridir.

Texnik tayyorgarlik jangovar tayyorgarlikning asosiyalaridan biri bo'lib, u shaxsiy tarkibni qo'shinlarda mavjud bo'lgan qurol-aslaha va harbiy texnikaga bo'lgan bilim va ko'nikmalarini oshirishga, qurol-aslaha va harbiy texnikalarni sifatli ishlatishga, ularni jangovar shay holda ushlab turishga hamda jangda mohirona qo'llashni o'rgatadigan fandır.

Texnik tayyorgarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi: qurol-aslaha va harbiy texnikaning tuzilishini, ularni ishlatish qoidalarini, haydovchi, mexanik haydovchi, ekipaj va hisoblar tomonidan ularga TXK o'tkazishni.

Texnik tayyorgarlik bo'linmalar, harbiy qismlar va oliy ta'lim muassasalarida shaxsiy tarkibni o'qitishning asosiy fanlaridan biridir. Texnik tayyorgarlikning vazifasi - bu qurol-aslaha va harbiy texnikaning tuzilishini, ularni janga tayyorlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf yetish va ta'mirlashga shaxsiy tarkibni o'rgatishdan iboratdir.

Texnik tayyorgarlik mashg'ulotlari texnik ta'minoti mansabdor shaxslari tomonidan tashkillashtiriladi, bo'linma komandirlari yoki bo'linma texniklari tomonidan tomonidan o'tkazilishi lozim.

Texnik tayyorgarlik mavzular majmuini va mashg'ulotlar turini, hajm va o'tash muddatini qurol-aslaha va harbiy texnikani qurolli mojarolar sharoitlardan, shaxsiy tarkibni tayyorgarlik darajasidan, texnik ta'minoti bo'linmalari qurolli mojarolarga tayyorgarlik ko'rish yoki qurolli mojarolar davomida hal etiladigan vazifalardan va vaqtni mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Sharoit va vaqtga qarab shaxsiy tarkibni qo'yilgan vazifalarni bajarishga tayyorlash turli uslublarda o'tilishi mumkin: amaliy va namunali mashg'ulotlar, yo'riqnomalar, turli mutaxassislik yig'inlari, tajriba almashish.

Ekipajlar, ta'mirlovchi mutaxxasislarni bilimlarini oshirishga va malakalarini mustahkamlashga eng yaxshi natijalar amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan erishiladi, lekin ularni o'tkazish uchun ko'p hollarda yetishmaydigan vaqt kerak bo'ladi.

Vaqt tanqisligida bo'linmalarda shaxsiy tarkibini qurolli mojarolarga tayyorlashni asosiy usuli shaxsiy tarkibga yo'riqnomalar berish orqali, ularga vazifalarni belgilanganidan so'ng yoki qurol-aslaha va harbiy texnikani qurolli mojarolarga tayyorlash ishlaridan avval o'tkaziladi. Shaxsiy tarkibga yo'riqnoma berish orqali texnik tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkillashtirilganda ular o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim.

Asosiy diqqat bo'linmalarni butlash uchun kelgan, qurol-aslaha va harbiy texnika qurolli mojarolar sharoitida ekspluatatsiya qilish tajribasi haydovchi, mexanik-haydovchilarni texnik tayyorgarligiga, ularni bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Shaxsiy tarkibning tajribasi kamligida va ularni o'rgatish uchun vaqt yetarli bo'lsa, bo'linmalarda va ta'mirlash-tuzatish organlarida texnik va maxsus tayyorgarlik, qoida bo'yicha, amaliy va ko'rgazmali mashg'ulotlar uslublarda o'tkaziladi.

Bu mashg'ulotlar mavzular majmuyi va tarkibi har bir harbiy xizmatchilar kategoriyasi, shtat sohasi, amaliy va jangovar tajribasiga qarab belgilanadi.

Texnik tayyorgarlik kursidan so'ng, ekipaj va hisoblar quyidagilarni bilishlari shart: bo'linmalarda mavjud bo'lgan qurol-aslaha va harbiy texnikalar hamda ularning maxsus jihozlari taktik texnik xarakteristikalarini, tuzilishini, ularni jangovar qo'llashni, ulardan foydalanish qoidalarini bilishga majbur.

Texnik tayyorgarlik mashg'ulotlarining sifati ko'p jihatdan ularni tashkillashtirish jarayoniga, qo'llaniladigan o'qitish usullariga, moddiy-texnik ta'minotga, shuningdek o'rganuvchilar va mashg'ulot rahbarlarini mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilganligiga bog'liq.

Ta'lim jarayonini intensivlashtirishga ta'sir ko'rsatadigan chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

mashg'ulotlarni jangovar sharoitlarga yaqinlashtirgan holda o'tkazish;

mashg'ulot davomida barcha asosiy savollarni to'liq ochish;

ma'lumotlar yig'ish usulida mashg'ulotlarni tashkillashtirish;

mashg'ulotlar davomida nostandart usullarni qo'llash, treninglar va trenajerlarni qo'llash;

mashg'ulotlar davomida tinglovchilarni turli lavozimlarga tayinlash;

o'qitishning texnik vositalaridan samarali foydalanish;

faol o'qitish usullarini joriy yetish.

Tayyorgarlik sifatini oshirish maqsadida mashg'ulotni tashkillashtirishda tayyorgarlik majmuasini to'liq qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni qurol-aslaha va harbiy texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash amaliy savollari texnikalarni boshqarish mashg'ulotlari bilan birgalikda olib borilishi;

o'qitishning asosiy usuli deb qurol-aslaha va harbiy texnikalarda amaliy ishlarni bajarilishi;

mashg'ulotlarda texnik tayyorgarlik meyorlarini bajarishning keng qo'llanishi;

muhandislik texnikalari haydovchi va mexanik haydovchilari bilan yig'inlar tashkillashtirilib mashg'ulotlarni o'tilishi. Guruhlarni mutaxassislar bilan ularni o'rganayotgan texnikalar rusumiga asosan mashinalar yoki bazoviy mashinalar buyicha butlash;

mashg'ulotlarni o'rganuvchilar bilan tashkillashtirish va o'tkazish joylarda mashg'ulot rahbari nazoratida, bir o'rganuvchini shaxsiy tarkib harakati ketma-ketligi va texnika xavfsizligi qoidalariga rahbar sifatida belgilagan holda o'tkazishni;

barcha hollarda barcha amaliy harakatlar o'quv yoki jangovar normativlarga ko'ra oxiriga yetkazilishiga erishishga;

amaliy mashg'ulotlar davomida o'rganuvchilarni mashg'ulotga to'liq jalb etish va mustaqil harakatiga to'liq erishish maqsadida mashg'ulotlarni barcha rahbariy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq;

mashg'ulotlarga jalb etilayotgan texnikalarda mashg'ulot boshlangunga qadar, jangovar mashinalar parkidan chiqishdan nazorat ko'rigi hajmida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini, mashg'ulotlardan so'ng esa o'rganuvchilarni jalb etgan holda kundalik texnik ko'rsatish hajmida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish zarur.

Mashg'ulotlarni majmuaviy usulda tashkil etishning o'ziga xos bir qancha afzalliklari mavjud:

amaliy boshqaruvga jalb etiladigan texnikalar soni kamayadi;

mashg'ulot davomida barcha o'rganuvchilar mashg'ulotga to'liq jalb etiladi;

texnik tayyorgarlik normativlarini to'liq bajarish imkoniyatlari oshadi.

Biroq mashg'ulotlarni majmuaviy usulda tashkil etish mashg'ulot rahbari va mashg'ulot qatnashchilarini mashg'ulotga chuqurroq yondashuvini, barcha o'quv joylarida mashg'ulotlarni sifatliroq tashkillashtirishni talab etadi.

Majmuaviy usuldagi mashg'ulotlar texnikalar tuzilishini o'rganib bo'lgandan so'ng, ulardan foydalanish va ularni amaliy boshqarish asoslari asosida o'tkaziladi.

Texnik tayyorgarlik mashg'ulotlari hech bo'lmaganda besh o'quv nuqtasida tashkillashtiriladi va o'tkaziladi. O'quv nuqtalari soni mashg'ulot mazmuni va uni o'tkazish usulidan kelib chiqib belgilanadi.

Yuqoridagilardan shuni XULOSA qilish mumkinki, texnik tayyorgarlik bu shaxsiy tarkibga qurol-aslaha va harbiy texnikani tuzilishi, ularni to'g'ri ishlashi, ularni ekspluatatsiya qilish

qoidalarini, ularga TXK texnologiyasini va ekipaj kuchlari yordamida nosozliklarni o'z vaqtida va sifatli bartaraf etishni o'rgatadi.

Demak texnik ta'minotning asosiy tadbirlaridan biri bo'lgan texnik tayyorgarlik mashg'ulotlari shaxsiy tarkib tomonida sifatli o'zlashtirilishi zamonaviy qurolli mojaralarda tomonlarning g'alabaga erishishda o'zining salmoqli ulushini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 7. Учебное пособие. Технического обеспечение общевойскового боя. Организация, вооружение, техника и возможности части и подразделение технического обеспечения. Т.: АВС РУ, 2022. 112 с.
2. Учебник. Организация эксплуатации вооружения и военная техника. Т.: АВС РУ, 2023. 443 с.